



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

Qibray tumani

6 yanvar 2026 yil.

1-9-6/ 1-son

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2025-yil 23-dekabrda 516-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 21-iyuldagi 09-1139-son topshiriq xati bilan yuborilgan "VoiceUp" inklyuziv yoshlar oromgohi ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqilgan taklif va tashabbuslarni amaliyotga joriy qilish bo'yicha "Yo'l xarita"ning 5-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 23-dekabrda "Oliy ta'lim tashkilotlarida "Inklyuziv media klubi"ni tashkil etish to'g'risida"gi 516-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor J.Lapasov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat boshqarmasi boshlig'i S.Isroilov, Axborot resurs markazi direktori J.Temirxodjayev, Universitet matbuot kotibi Z.Sodiqovaga:

Yo'riqnoma asosida universitetda "Inklyuziv media klubi"ni tashkil etish; klubga mas'ul rahbar tayinlash, yillik rejasini ishlab chiqish, amalga oshirish va universitet Kengashida hisobotini tahlil qilish;

inklyuziv ta'lim va mediasavodxonlik bo'yicha seminar-treninglar o'tkazish; nogironligi bo'lgan talabalar ishtirokida media kontent (video, podkast, ijtimoiy rolik) tayyorlash va joylash;

klub faoliyatini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda zarur texnik jihozlar (kompyuter, kamera, audio qurilmalar) bilan ta'minlash;

inklyuzivlik va teng imkoniyatlar mavzusida tanlov, debat va forumlar tashkil etish;

amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositasi hamda univrsitetning rasmiy veb-saytida yoritish vazifalari yuklansin.

3. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 23-dekabrda "Oliy ta'lim tashkilotlarida "Inklyuziv media klubi"ni tashkil etish to'g'risida"gi 516-sonli buyrug'i

Rektor



N.Oblomuradov